



O'ZBEK TILI – MILLIY O'ZLIK TIMSOLI VA GLOBALLASHUV DAVRIDA UNING MAVQEYI

Amirqulov Sanjar Sayitmurotovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Email: s.amirqulov@dtpi.uz

Tel: +998(99)747-90-87

Abduvaxitova Nurhayot Abduzohid qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi.

Tel: +998(88) 073-33-07

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17370543>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining bugungi kundagi mavqei, qo'llanish sohasi, huquqiy asoslari va raqamli muhitdagi rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida o'zbek tili nafaqat mamlakat miqyosida, balki xalqaro darajada ham nufuz qozonganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek tilining qonunchilikdagi o'rni, ta'lim tizimidagi o'qitilish holati, til texnologiyalari sohasidagi yutuqlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, davlat tili, qonunchilik, til texnologiyalari, raqamli muhit, o'zlik, globallashuv, izohli lug'at, til siyosati.

Bugun o'zbek tili nafaqat O'zbekiston hududida, balki xalqaro miqyosda ham tobora keng quloch yoymoqda. Davlat tili maqomini olganiga 35 yil to'lgan bu til bugungi kunda 40 milliondan ortiq insonning ona tiliga aylangan. Til — bu millatning yuragi, tafakkuri, ruhi. Shu bois o'zbek tilining nufuzi, imkoniyatlari va istiqbollari haqida gap ketganda, bu masala faqat lingvistik emas, balki siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy masalaga ham aylanadi.

So'nggi yillarda o'zbek tili qo'llanish sohalari sezilarli kengaydi. Quyidagi raqamlar bunga yaqqol misol bo'la oladi: O'zbekiston aholisi 38 million, shundan 95 foizdan ortig'i o'zbek tilida erkin so'zlashadi. O'zbek tili bugungi kunda 12 mamlakatda o'qitilmoqda (Turkiya, AQSh, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya va boshqalar)[1]. Til texnologiyalari yo'nalishida "O'zbek tili korpusi", "O'zbek tilining ta'limiy korpusi", "Tahrirchi", "izohli.uz" kabi loyihalar ishga tushirilgan.

O'zbek tilining huquqiy asoslari mustahkam. 2019-yilga qadar davlat tilini rivojlantirish sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari 3 ta ya'ni, 2 ta – Qonun, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi (yangi tahriri, 21.12.1995y., O'RQ-167-I-son) va O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi (02.09.1993 y., 931-XII-son) va 1 ta "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" (24.08.1995y., 339-son) qarorlari.

2019-2023-yillarda davlat tilini rivojlantirish sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari 14 tani tashkil etadi. Bulardan 1 ta – Qonun "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida" (10.04.2020 y., O'RQ-615) 2 ta – Prezident Farmoni bo'lib, "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi (21.10.2019 y. PF-5850-son) va "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (20.10.2020 y., PF-6084-son). Shuningdek, 1 ta – Prezident qarori "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng

nishonlash to'g'risida" (04.10.2019 yildagi PQ-4479-son) 10 ta – Vazirlar Mahkamasining qarori[2].

Ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitilmaydigan bosqich deyarli qolmagan.

10 mingdan ortiq maktabda darslar o'zbek tilida olib boriladi, 140 ga yaqin oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilida mutaxassislar tayyorlanadi. So'nggi yillarda o'zbek tili bo'yicha xalqaro sertifikatlash tizimi joriy etildi[3]. Bu o'z tilini o'rganish va qadrlashga bo'lgan ijobiy munosabat ortib borayotganini ko'rsatadi.

Globalashuv jarayoni har bir milliy til uchun sinovdir. Ingliz, rus va turk tillari xalqaro maydonda faol ishlatilayotgan bir paytda, o'zbek tili ham raqamli dunyoda o'z o'rnini topishi zarur. Shu maqsadda sun'iy intellekt asosida o'zbekcha tarjimonlar, matn tahlil tizimlari, ovoqli yordamchilar yaratilmoqda. Bu sohada "Izohli.uz" sayti ishlarida unda 80 mingdan ortiq so'z va birikmalar mavjud. "Imlo.uz" so'zlarning lotin va krill yozuvidagi to'g'iri yozilishi bilan birga, "Izohli.uz" sayti orqali o'zbek adabiy tiliga oid so'zlarning izohini ko'rish mumkin. Shuningdek, bugungi kunda, "O'zbek tili korpusi", "O'zbek tilining ta'limiy korpusi", "Navoiy korpusi" kabi o'zbek tilining rivojlanishi uchun xizmat qiladigan saytlar ishga tushirilgan va ular safi kengayib bormoqda. Mutaxassislar fikricha, agar 2030-yilgacha o'zbek tili raqamli tarmoqlarda mustahkam o'rnashsa, u Markaziy Osiyodagi eng faol onlayn tillardan biriga aylanishi mumkin.

Tilni sevish - bu faqat grammatikani bilish emas, balki unga mehr, mas'uliyat va g'urur bilan munosabatda bo'lishdir. Har bir fuqaro o'z tilida to'g'ri yozsa, toza so'zlasa, bu — eng katta til siyosatidir. Bugun o'zbek tili yangi bosqichda: u davlat tili sifatida mustahkamlanmoqda, raqamli platformalarga kirib bormoqda, xalqaro miqyosda e'tirof topmoqda. Demak, o'z tilini qadrlagan xalq - o'zligini asragan xalqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminova, Mavjuda Toshpo'Latovna (2025). O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5 (1), 513-518.
2. <https://lex.uz/docs/-4561730> O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. <https://kun.uz/news/2018/03/18/uzbek-tilining-halkaro-baolas-tizimi-islab-cikildi>
4. Qahramonov V. O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZI VA MAVQEINI OSHIRISHGA HAR BIRIMIZ MAS'ULMIZ. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, (25), 20.12.2023